Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 274-sahifa.
2026-yil, oktabr.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

MUNDARIJA

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119

TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148
RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish……254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati……261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash……274

UO‘K: 633.512,631.151.6

ANOR YETISHTIRISH VA SOTISH QIYMAT ZANJIRIDA ISHTIROKCHILARNING DAROMADLARI ULUSHINI IQTISODIY BAHOLASH

IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti
E-mail: irgashevabbos1994@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-2147-0480

Annotatsiya. Ushbu maqolada anor yetishtirishning xususiyatlari va ahamiyati hamda anor qiymat zanjirini iqtisodiy baholash, narx shakllanishi va daromad taqsimotini chuqur tahlil qilish orqali qiymat zanjiridagi barcha ishtirokchilarning iqtisodiy manfaatlarini himoua qilish imkoniyatlari, fermerlar va mahalliu ishlab chiqaruvchilarning daromad ulushlarini aniqlash orqali ularni qo‘shimcha moliuaviu va texnik uordam bilan ta’minlash, anor qiymat zanjiridagi ishtirokchilarning daromadlarini oshirish, eksport salohiuatini kuchautirish, anor yetishtirish va uni sotishdagi qiymat zanjirida ishtirok etuvchilar o‘rtasida daromad taqsimotini samarali tashkil etish takliflar asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: anor, qiymat zanjiri, iqtisodiy baholash, narx, daromad taqsimoti, daromad ulushi, anor yetishtirish, anor sotish, dehqon va fermer xo‘jaligi.

Аннотация. В данной статье представлены особенности и значение выращивания граната и экономическая оценка цепочки создания стоимости граната, возможности защиты экономических интересов всех участников цепочки создания стоимости посредством углубленного анализа ценообразования и распределения доходов, определение долей доходов фермеров и местных производителей, предоставление им дополнительной финансовой и технической помощи, увеличение доходов участников цепочки создания стоимости граната, укрепление экспортного потенциала и эффективная организация распределения доходов между участниками цепочки создания стоимости выращивания и сбыта граната.
Ключевые слова: гранат, цепочка создания стоимости, экономическая оценка, цена, распределение доходов, доля доходов, выращивание граната, сбыт граната, фермер и фермерское хозяйство.

Abstract. This article substantiates proposals regarding the characteristics and significance of pomegranate cultivation, as well as the economic assessment of the pomegranate value chain. Through an in-depth analysis of price formation and income distribution, the article outlines opportunities to safeguard the economic interests of all value chain participants; determine the income shares of farmers and local producers to facilitate the provision of additional financial and technical support; increase the earnings of value chain participants; strengthen export potential; and effectively organize income distribution among those involved in the pomegranate production and sales value chain.
Keywords: pomegranate, value chain, economic assessment, price, income distribution, income share, pomegranate cultivation, pomegranate sales, peasant and farm enterprises.

KIRISH

Bugungi kunda “dunyo bo‘yicha anor yetishirish hajmi 3,51 mln. tonnani tashkil etmoqda. Bu borada Hindiston (251,175 ming tonna), Xitoy (232,760 ming tonna), Eron (183,595 ming tonna), Ozarbayjon (133,861 ming tonna), Turkiya (97,128 ming tonna) kabi davlatlar yetakchilik qilmoqda” [1]. Respublika bojxona

qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, “O‘zbekistonda anor yetishtirish hajmi yil sayin ortib bormoqda. 2024 yili mamlakatda 156,9 ming tonna anor yetishtirilgan bo‘lsa, shundan 61,4 ming tonnasi eksport qilingan. 2025 yilda bu ko‘rsatkich O‘zbekiston 178,8 mln. dollarlik 82,6 ming tonna anorni Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Belarus va Koreya davlatlariga eksport qilgan” [2].

Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlar asosan anorni saqlash muhiti, uning qadoqlanishi va saqlash uchun maqbul navlarni tanlashga bag‘ishlangan. Jumladan, Xitoyda parafin bilan saqlash, Ozarbayjonda biologik faol moddalar hamda ozon bilan saqlash usullari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash muammosi haligacha o‘z yechimini topgani yo‘q.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ularning assortimenti va eksport salohiyatini tubdan oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Shu bilan bir qatorda malakatimizda ham bir qator ilmiy izlanishlar va tadqiqot ishlari anorni turli usullarda saqlash texnologiyasi bo‘yicha olib borilgan. Lekin anorni yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash bo‘yicha ilmiy izlanishlar yetarli emas. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan «Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan. Taraqqiyot strategiyasining 3-yo‘nalishida ham «...qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish»[3] masalalari alohida belgilab qo‘yilgan. Bu o‘rinda anorning agrobiologik va texnologik xususiyatlarini saqlanuvchanlik xususiyatlariga bog‘liqligini o‘rganish, shuningdek, saqlash jarayonidagi maqbul texnologik elementlarni hamda anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash ilmiy asoslash dolzarb hisoblanadi.

Anor yetishtirish qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning samaradorligini oshirish ahamiyat kasb etadi. Bu soha mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shish, aholining bandligini ta’minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash imkonini beradi. Anor ishlab chiqarish va qauta ishlash uchun qulau tabiiu iqlim sharoitlari bo‘lgan O‘zbekistonda kuchli potensial resurs bazasiga ega. O‘zbekiston mintaqalarining tuproq, iqlim sharoitlari anor ishlab chiqarishni sanoat darajasida tashkil etishga imkon beradi. O‘zbekiston sharoitida anor yetishtirishning iqtisodiy samaradorigi ko‘rsatkichlari esa nisbatan uangi uo‘nalish bo‘lib, mevachilik sohasidagi bir qancha tadqiqotlar tarkibida qisman o‘rganilgan xolos. Anor plantatsiualari qishloq joularda sezilarli darajada bandlikni ta’minlash va daromad olish imkonini beradi.

Markaziu Osiuo va unga tutash mintaqalarda joulashgan ba’zi mamlakatlarda anor va boshqa mevalarni uig‘ish, qauta ishlash va sotish

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

ko‘pincha iqtisodiy faoliuat bilan bo‘lgan bo‘lsada, anor plantasiualarining kengauishi plantatsiualarni boshqarish, anor qauta ishlash va savdosida rasmiu bandlikning o‘rnatilishiga olib keladi. Shuningdek, anor daraxtlari ekologik barqarorlikni ta’minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, tuproqni eroziyadan himoya qiladi, havo sifatini yaxshilaydi va mikroiqlimni tartibga soladi.

Tez buzilmaydigan mahsulotlar orasida anor ko‘chirish va tashish uchun qulau bo‘lgan qattiq qobig‘i bilan mashhur oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Anor doshlar meva berishi mumkin bo‘lgan joular ancha chegaralangan – Yer sharidagi quruqlikning atigi 7% qismi bunga mos keladi. O‘zbekiston katta hududi anor yetishtirishga mos keluvchi kam, sonli davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatimiz anor yetishtirishda oxirgi yillarda yetakchilar qatoriga kira oldi[1]. Xususan anor yetishtirishda yuqori ko‘rsatkich bilan dunyoda 20-o‘ringa ko‘tarilganligi ishlab chiqarish hajmi ancha oshganligini anglatsada, yurtimizning tabiiy imkoniyatlaridan oqilona foydalana olinmayotganini ko‘rsatadi[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 yanvardagi PQ-4575-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida sohani rivojlantirish istiqbollari belgilab berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Anor anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash muammolari milliy va xorijiy olimlar hamda milliy mutaxassis-tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilmoqda.

Xorijiy olimlar Smith, J., Brown, L [4], Williams, K. [5], Jones, R., Wang, L. [6], Ribakov A. A., Ostrouxova S. A. [7], Samedov A.[8] kabilar anor yetishtirishning ahamiyatini o‘rganishgan, ammo anor yetishtirishning samaradorligini oshirishning o‘ziga xos tomonlari ushbu olimlar ishlarida chuqur o‘rganilmagan.

Milliy olimlarimizdan Shadiev R., Ruzmetov B [9], Karimov S. [10] Baymetov K. I., Shreder YE. A., Axmedov SH. M., Qayimov A. Q.[11], Rajametov SH., Normuratov I., Adilov X., Namozov I. [12] va boshqa olimlarning tadqiqotlari anor yetishtirishning ahamiyatining nazariy va uslubiy jihatlari yoritilgan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlaridan foydalangan holda anor yetishtirishning ahamiyati va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Shu sababli zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash metodikasini takomillashtirish orqali uning samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash yo‘llari qiyosiy fikrlash, induksiya va deduksiya hamda abstraktsiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Anor yetishtirish qishloq xo‘jaligi mahsulotlari orasida muhim o‘rin tutadi. Bu mahsulotning xalqaro va mahalliy bozorlarda talab darajasi yuqori bo‘lib, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, kosmetika va boshqa sanoat tarmoqlarida keng qo‘llaniladi. Anorning ko‘plab oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari tarkibida foydali moddalar manbai sifatida ishlatilishi uning qiymatini oshiradi, bu esa anor yetishtirishni qishloq xo‘jaligi sektorining yuqori daromad keltiruvchi sohasi sifatida belgilaydi.

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirish ahamiyatli sohalardan biriga aylangan bo‘lib, qishloq xo‘jaligiga tayanadigan hududlarda qimmatli daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududning iqlim sharoiti anor yetishtirish uchun qulay bo‘lib, bu mahsulotning yuqori sifatda va miqdorda ishlab chiqarilishiga imkon yaratadi. Anor yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish jarayonlari milliy daromadga hissa qo‘shibgina qolmay, mahalliy ishchi kuchini jalb qilish va qishloq joylarida yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda anor yetishtirish va uni sotishdan olinadigan daromad qiymat zanjirida ishtirok etuvchi barcha tomonlar uchun katta ahamiyatga ega. Fermerlar, tayyorlovchilar, qayta ishlovchilar, chakana sotuvchilar va eksportchilar qiymat zanjirining muhim ishtirokchilari hisoblanadi. Bu tomonlarning iqtisodiy manfaatlari va daromad ulushlarining taqsimoti nafaqat qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishga, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Anor qiymat zanjiridagi har bir bo‘g‘inning o‘zaro bog‘liq holda ishlashi va samarali taqsimlanishi soha rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Anor qiymat zanjirini iqtisodiy baholash juda muhim sanaladi. Xususan, narx shakllanishi va daromad taqsimotini chuqur tahlil qilish orqali qiymat zanjiridagi barcha ishtirokchilarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish mumkin. Fermerlar va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning daromad ulushlarini aniqlash orqali ularni qo‘shimcha moliyaviy va texnik yordam bilan ta’minlash imkonini beradi, bu esa ularga ko‘proq daromad olish hissa qo‘shadi. Anor qiymat zanjiridagi ishtirokchilarning daromadlarini oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi, bu esa iqtisodiyotga qo‘shimcha daromad olib keladi. Shunday qilib, anor yetishtirish va uni sotishdagi qiymat zanjirida ishtirok etuvchilar o‘rtasida daromad taqsimotini samarali tashkil etish qishloq xo‘jaligi sektorining uzoq muddatli rivoji uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, qiymat zanjiridagi daromad ulushini tahlil qilish va ishtirokchilarning iqtisodiy faoliyatini yaxshilash uchun samarali takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Anor qiymat zanjiri ishtirokchilari va ularning daromad ulushlarini aniqlashda Surxondaryo viloyati tumanlarida individual suhbatlar va fokus-guruhlar orqali tadqiqot olib borildi. Suhbatlar belgilab olingan guruhlarning quyidagi ishtirokchilari bilan o‘tkazildi: material yetkazib beruvchilar, Anor ishlab chiqaruvchilar (fermerlar va dehqonlar, uyushma vakillari), vositachilar,


2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

qayta ishlovchilar, iste'molchilar, davlat va nodavlat sektor vakillari, shuningdek, mustaqil ekspertlar. Jami 20 ta suhbat 4 ta guruhda o'tkazildi.

Surxondaryo viloyatida anor qiymat zanjiri ishtirokchilari quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin:

Ko'chat, o'simlik himoya vositalari va o'g'it yetkazib beruvchilar. Bu guruhga har bir tumanlarda mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligi do'konlari kiradi. Ushbu do'konlar kerakli mahsulotlardan tashqari, fermerlarga anor yetishtirish bo'yicha bepul maslahatlar ham beradi. Qishloq xo'jaligi do'konlari odatda kichik va mahalliydir. Bundan tashqari, hududda bir nechta kichik ko'chatxonalar mavjud bo'lib, ular anor ko'chatlarini tayyorlab, har birini 25-35 ming so'm narxda sotadi.

Tayyorlovchi, qayta ishlovchilar, vositachilar/ulgurji sotuvchilar. Qayta ishlovchilar quritish, qobiq va qadoqlash orqali anor xom-ashyosiga qiymat qo'shadi. Ularning xarajatlari anor xom-ashyosi, qayta ishlash uchun mehnat, mashinalar va qadoqlash materiallarini sotib olishni o'z ichiga oladi. Qayta ishlash faoliyati orqali qo'shilgan qiymat hisobiga qayta ishlash korxonalari fermerlarga nisbatan yakuniy narxning yuqori ulushini oladi.Vositachilar va ulgurji sotuvchilar asosiy savdo kanalini tashkil qiladi. Ko'pchilik ishlab chiqaruvchilar va yig'uvchilar anorlarini ular orqali sotadi. Biroq, ayrim fermerlar anorlarini (po'stloqli yoki po'stlog'siz) bozorda vositachisiz sotadi.



Manba: muallif hisob-kitobi intervyu natijalariga asoslangan.

1-rasm. Anor qiymat zanjiri

Anor qiymat zanjirining asosiy ishtirokchilari ko‘chat, pestitsid va o‘g‘it yetkazib beruvchilar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar (fermer, dehqon, uy, tomorqa xo‘jaliklari), vositachilar/ulgurji sotuvchilar, chakana sotuvchilar, supermarketlar va yakuniy iste’molchilar (mahalliy va xorijiy) hisoblanadi (1-rasm).

Anor yetishtirishning foydaliligi borasida moliyaviy hisob-kitoblar quyidagi jadvalda keltirilgan. Jadvalda bir gektar maydondagi anor ekinining uch, besh va yetti yillik hosil berish davridagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari keltirilgan. Har bir davrda anordan olinadigan hosil, ulgurji narx, daromad, umumiy operatsion xarajatlar va sof foyda hisob-kitobi aks etgan (1–jadvalga qarang).

Unga ko‘ra uch uillik davrda anor hosili 29-40 tonna, besh uillikda 45 tonna, va uetti uillikda 45 tonnagacha ortgan. Bu hosildorlikning vaqt o‘tishi bilan sezilarli oshishini ko‘rsatadi. O‘rtacha ulgurji narxi (po‘choqli) tadqiqot davrida 25 ming so‘m/kg bo‘lgan va bu shartli ravishda hisob ishlarida foydalanilgan.

1-jadval

Anor yetishtirish texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili (2025 yil baholarida)

Ko‘rsatkichlar		O‘lchov birligi	An’anaviy usulda, navlar bo‘yicha		Intensiv usulda, navlar bo‘yicha	
			Sherabod shirin anori	Globi	Sherabod shirin anori	Globi
1 gektar yer maydonda anorzor barpo etish xarajatlari		Min. so‘m	1 524,5	1 539, 8	1 537,1	1 541,2
1 gektar anorzorni yillik parvarishlash xarajatlari *(to‘liq hosilga kirganda)*	Jami	Min. so‘m	206,0	218,1	276,2	268,0
	Ish haqi		82,2	82,4	128,3	128,2
	Moddiy va boshqalar		124,1	136,2	148,2	140,7
Anorzorlarning asosiy hosilga kirish muddatlari	3 yil	t/ga	17,64	21,56	17,16	19,5
	5 yil	t/ga	34,3	39,2	35,1	39,0
	7-10 yil	t/ga	49,0	53,9	46,8	50,7
O‘rtacha 1 gektar anorzordan *(to‘liq hosilga kirganda)*	Tushum	Min. so‘m	352,8	445,9	468,0	526,5
	Sof foyda	Min.so‘m	146,8	157,9	209,1	258,5
Rentabellik darajasi		**%**	**71,2**	**72,4**	**75,7**	**96,5**

Anor hosilidan keladigan daromad uch yilda 352,8 min. so‘m, besh yilda 445,9 min. so‘m va yetti yilda 468,0 min. so‘mni tashkil etgan. Bu hosildagi o‘sish tufayli daromadning ham sezilarli darajada oshib borayotganini bildiradi**.** Operatsion xarajatlar uchinchi yilda 206, 0 min. so‘mni tashkil etsa, beshinchi yilda 218, 1 min. so‘m va yettinchi yilda 276, 2 min. so‘mga yetadi. Bu xarajatlarning yillar o‘tishi bilan ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Foyda hisob-kitobida anor ekishdan uchinchi yilida zarar kuzatilgan bo‘lsada, beshinchi yilida 146,8 min. so‘m va yettinchi yilida esa 157,9 min. so‘m

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

sof foyda keltirgan. Bu anor plantatsiyasining rentabelligi vaqt o‘tishi bilan oshib, foyda ko‘tara boshlashini ko‘rsatadi.

Qiymat zanjiridagi gorizontal va vertikal munosabatlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar nisbatan barqaror bo‘lsa-da, muayyan muammolar mavjud. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ta’minotchilari va fermerlar o‘rtasida sifat va narx mos kelmasligi tez-tez uchraydi, bu esa ta’minot tizimini yaxshilash zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval

Anor qiymat zanjiridagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar

Munosabatlar	Tavsif
Gorizontal munosabatlar	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etuvchilar (shu jumladan ko‘chatxonalar)	So‘nggi paytlarda mintaqada qishloq xo‘jaligi do‘konlari soni ortdi va shu sababli raqobat kuchaydi. Mintaqada kichik va nisbatan yirik ko‘chatxonalar sonining ortishi ham sezilarli. Ular o‘rtasida raqobat mavjud, ammo ayrim hollarda ular hamkorlik qiladilar.
Fermerlar o‘rtasida	Mamlakat uchun yangi nav bo‘lgani sababli, fermerlar bir-birlari bilan yaqin hamkorlik qilib, ma’lumot almashadilar.
Vositachilar/ulgurji sotuvchilar o‘rtasida	Mintaqada ko‘plab vositachilar/ulgurji sotuvchilar mavjud va anor sotish mintaqada qiyin emas. Vositachilar/ulgurji sotuvchilar o‘rtasidagi raqobat unchalik kuchli emas, chunki ular tomonidan fermerlarga taklif qilinadigan narxlar ko‘p farq qilmaydi.
Bozordagi chakana sotuvchilar o‘rtasida	Bozorda ko‘plab chakana sotuvchilar mavjud va shu sababli raqobat muhiti mavjud. Ammo, avvalgi holatda bo‘lgani kabi, chakana sotuvchilardagi narxlar deyarli bir xil. Ko‘pincha fermerlarning o‘zlari ham mahsulotlarini bozorga olib kelganlarida chakana sotuvchi sifatida ishtirok etadilar.
Supermarketlar o‘rtasida	So‘nggi paytlarda supermarketlar soni ortdi va katta shaharlarda ular o‘rtasidagi raqobat juda kuchli. Mintaqalarga kelsak, u yerda faqat bir necha supermarket tarmoqlari mavjud va raqobat zaif.
Iste’molchilar o‘rtasida	Anor(yadro) juda mashhur iste’mol mahsuloti bo‘lib, biz bu tendensiya sabablarini yuqorida sanab o‘tganmiz. Iste’molchilar Yangi yil davrida, an’anaviy taomlar tayyorlash uchun, mahalliy hamda import anorlarni xarid qiladilar.
Vertikal munosabatlar	
Qishloq xo‘jaligi do‘konlari, ko‘chatxonalar va fermerlar o‘rtasida	Intervyularda qatnashchilar aytishicha, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xizmatlari hamda ko‘chatlar topish oson. Biroq, ular ko‘pincha xarid qilingan mahsulot yoki xizmatning narxi va sifati mos kelmasligini ta’kidlaydilar.
Fermerlar va vositachilar/ulgurji sotuvchilar o‘rtasida	Fermerlar va vositachilar/ulgurji sotuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning ko‘pchiligi norasmiy bo‘lib, hech qanday yozma yoki og‘zaki kelishuvga (shartnomaga) asoslanmagan. Ko‘pchilik fermerlarning vositachilar/ulgurji sotuvchilar bilan barqaror munosabatlari yo’q va mahsulotlarini turli vositachilar/ulgurji sotuvchilarga sotadilar.
Vositachilar/ulgurji sotuvchilar va bozor chakana sotuvchilari o‘rtasida	Bu munosabat ham norasmiy va hech qanday kelishuvga asoslanmagan. Ammo, u barqaror hisoblanadi. Ko‘pchilik chakana sotuvchilar og‘zaki kelishuv asosida mahsulotni bir xil ulgurji sotuvchidan xarid qiladilar.
Vositachilar/ulgurji sotuvchilar va supermarketlar o‘rtasida	Bu munosabat rasmiy bo‘lib, vositachi va supermarket o‘rtasidagi kelishuv bilan mustahkamlangan.
Bozordagi chakana sotuvchilar va iste’molchilar o‘rtasida	Bozorlarda shahar va qishloqlarda ko‘plab xaridorlar mavjud. Boshqa chakana savdo nuqtalari bilan solishtirganda, bozorlardagi narxlar odatda pastroq bo‘lib, bu ayrim iste’molchilar segmenti uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bozordan xarid qilingan mahsulotni sog‘lom va tabiiyroq deb hisoblaydigan iste’molchilar guruhi mavjud.
Supermarketlar va iste’molchilar o‘rtasida	Supermarketlar xaridorlarga mahsulotlarni xarid qilishda qulay muhitni taqdim etadilar va shu sababli bozordagi chakana sotuvchilarga qaraganda yuqoriroq narx belgilaydilar. Odatda, supermarketlarning maqsadli auditoriyasi farqli bo‘lib, ular qulaylik uchun yuqoriroq narx to‘lashga tayyor.

Manba: muallif hisob-kitobi va intervyu natijalariga asoslangan.

Fermerlar o‘zaro tajriba almashish orqali yangi texnologiyalarni qo‘llashni tezlashtirmoqdalar, ammo ular vositachilar va ulgurji sotuvchilar bilan norasmiy munosabatlarda bo‘lib, bu barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Chakana savdo tarmog‘ida raqobat mavjud bo‘lsa-da, narxlar o‘rtasidagi farqlar minimal. Fermerlar mahsulotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozorga olib chiqish orqali chakana sotuvchi sifatida ham ishtirok etmoqda. Supermarketlar shahar sharoitida nisbatan kuchliroq raqobat muhitida ishlasa-da, mintaqaviy darajada ularning raqobati zaifroq. Biroq, qulaylik va yuqori sifatni ta’minlash hisobiga iste’molchilar supermarketlarda xarid qilishga moyil. Umumiy qilib aytganda, qiymat zanjirida rasmiy kelishuvlarni kuchaytirish, narx va sifat muvozanatini ta’minlash, shuningdek, bozordagi raqobatni oshirish ishtirokchilar manfaatlarini yaxshiroq himoya qilish va barqaror hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda muhim o‘rin tutadi.

XULOSA

Anor sektorining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun fermerlarni o‘qitish, yangi ilmiy usullarni joriy etish zarur. Bu nafaqat fermerlar va dehqonlar uchun, balki universitet va ilmiy tadqiqot insitutlarida mutaxassislar tayyorlashni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, sug‘urta amaliyotlarini kengaytirish va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish fermerlarning daromadlarini oshiradi.

Qiymat zanjirining keyingi bosqichlari, qayta ishlash va saqlash jarayonlari ham muhim ahamiyatga ega. An’anaviy anorni qayta ishlash bir nechta mehnat talab qiladigan bosqichlarni o‘z ichiga oladi, Ushbu usullar kimyoviy moddalarni kamroq ishlatib, anorning tabiiy ta’mini saqlasada, zamonaviy texnologiyalarga qaraganda samaradorligi past va ko‘proq vaqt talab etadi. Sohada anorni qattiq qobig‘idan ajratish va saralash uskunalarining yetishmasligi sifatli mahsulot ishlab chiqarishni cheklaydi.

Surxandaryo viloyatidagi anor qiymati zanjiri doirasida daromad taqsimoti turli manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi nomutanosiblikni ko‘rsatadi. Bozorga kirishni, qayta ishlash imkoniyatlarini va kooperatsiya modellarini oshirish strategiyalarini amalga oshirish orqali daromad taqsimotini yaxshilash, fermerlarning yakuniy iste’mol narxidan adolatli ulushini olishini ta’minlash mumkin. Bunday yaxlit yondashuv mintaqadagi anor sanoatining barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shib, qiymat zanjirining barcha ishtirokchilariga foyda keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.https://www.faostat.com/search?q=faostat+2022+pomegranate&ei

2.https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/32627-o-zbekiston-17-3-mln-aqsh-dollariga-teng-anor-eksport-qilgan

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni

4. Smith, J., Brown, L. (2019). Nut value chain: An international perspective. Journal of Agriculture Economics, 15(4), 345-360.

5. Williams, K. (2021). Economics of the nut production chain. Agricultural Economics Review, 12(2), 240-255.

6. Hernandez, P. (2020). Economic analysis of the walnut processing sector. Food Industry Journal, 8(1), 98-110.

7. Jones, R., & Wang, L. (2018). Value Chain Analysis in Nut Agriculture: A Focus on Emerging Markets. International Journal of Agricultural Research, 14(3), 275-290.

8. Samant, S.S., Dhar, U., 1997. Diversity, endemism and economic potential of wild edible plants of Indian Himalaya. Int J Sust Dev World 4, 179–191. https://doi.org/10.1080/13504509709469953 .

9. Shadiev, R., Ruzmetov, B. (2021). Mahsulotlar Qiymat Zanjirini Takomillashtirish Yondashuvlari: Anor Ishlab Chiqarish Misolida. O‘zbekiston Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali, 11(2), 120-130.

10. Karimov, S. (2022). O‘zbekistonda anor yetishtirishning iqtisodiy rivoji va qiymat zanjiri tahlili. O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi Jurnali, 19(1), 45-55.

11. Байметов К. И., Шредер Е. А., Ахмедов Ш. М., Қайимов А. Қ.Анорни фермер хўжаликларида кўпайтириш технологияси.– Тошкент. 2015.

12. Ражаметов Ш., Нормуратов И., Адилов Х., Намозов И.Мева, резавор мева ва ток кўчатзорларини ташкил этиш.Тошкент. “Baktria press”, 2018. – б. 11-80.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy